

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALAR PSIXIK
RIVOJLANISHING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Eshchanova Nasiba Matnazarovna

Urganch innovatsion universiteti stajyor-o ‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixik rivojlanish jarayonlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: muloqot, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot

Аннотация: В данной статье анализируются процессы психического развития детей дошкольного возраста и их особенности.

Ключевые слова: общение, интуиция, восприятие, внимание, память, воображение, мышление, речь, фантазия, эмоции

Annotation: This article analyzes the processes of mental development of preschool children and their characteristics

Key words: communication, intuition, perception, attention, memory, imagination, thinking, speech, fantasy, emotion

Kirish. Maktabgacha ta’lim – ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoyqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta’lim, 6–7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoyqini tarbiyalashdan iboratdir.

Muxokama va natijalar. Maktabgacha yosh davrida bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda ularni 3 davrga: 1. Kichik maktabgacha davr (kichik bog‘cha yoshi) 3-4 yosh; 2. O‘rta maktabgacha davr (o‘rta bog‘cha yoshi) 4-5 yosh; 3. Kata maktabgacha davr (kata bog‘cha yoshi) 6-7 yoshga ajratish mumkin. Bog‘cha yoshidagi bolalarning yaqqol ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaligidan toliqib qoladi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat

orqali axloqiy me’yorlar, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlna boshlaydi, u yangiliklarni egallahsga nisbatan o‘z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitadi va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. 3-7 yoshli bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kichadi:

- predmetlarni o‘rganishi;
- individual predmetli o‘yinlar, jamoa sujetli-ro‘lli o‘yinlar;
- individual va guruhiy ijod;
- musobaqa o‘yinlari;
- muloqot o‘yinlari;
- uy mehnati.

Maktabgacha yosh davrida bolalar hamma narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi. Bu davrdagi bolalar tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir¹. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning yetakchi faoliyatlaridan yana biri bu – o‘yindir. Bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini uch guruhga bo‘lish mumkin: 1. Predmetli o‘yinlar; 2. Sujetli-ro‘lli o‘yinlar; 3. Qoidalni o‘yinlar. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xomxayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z vaqtining ko‘p qismini o‘yin bilan o‘tkazadi, ayniqsa 3-yoshdan 6-7 yoshgacha bo‘lgan o‘yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi². Bu yoshdagi bolalar ijodiy ijodiy faoliyatidan tasviriy san’at, ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko‘radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagи voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o‘ziga xosligi haqida bilish mumkin.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va iordaning rivojlanishi jadal kichadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yin juda kata ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o‘z oldiga qo‘ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning xotirasi ko‘rgazmali, obrozli bo‘lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko‘proq ixtiyorsiz esda

¹ Лисина М.И. “Проблема онтогенеза общения”. С.89-100.

² Ахунджанова С.А. “Особенности форм и функций речи дошкольника в различных ситуациях общения”. Автореф....к. пс .и. —М.: 1987. -17 с

qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bu yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tafakkur bolaning bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojlnana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi; ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlanishi; uchinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi, ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so‘na boshlaydi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning kattalar bilan muloqoti ularda nutqning rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi. Bola 3-4 yoshga to‘lganida hamkorlik o‘rniga muloqotning bilish shakli shakllanadi. Bunda kattalar bilan hamkorlik qilib tevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan nazariy hamkorlik jarayoni amalga oshadi. Bola 6-7 yoshga to‘lganda muloqotning oliy shakli –vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqotga o‘tiladi. Bu davrda bola kattalarga oila haqida, qayerda ishlashi, nima ish qilishi haqida savollar bera boshlaydi. Endi kattalar bola uchun ijtimoiy bilish manbayi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davrida psixik funksiyalaridan xotira juda yaxshi rivojlanadi³. Tafakkur tasavvurlar orqali namoyon bo‘la boshlaydi. Jamiyat, tabiat va dunyoning tashqi ko‘rinishi haqida dunyoqarashning kurtaklari shakllana boshlaydi. Bola tevarak-atrofni tartiblashtirishga va tushunishga intiladi. Bu davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat’iyasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbayi sifatida, ularning ta’limtarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Bog‘cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlari hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun kattalar beradigan baho juda muhimdir. Bolalar birinchi navbatda ma’naviy-axloqiy me’yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya qilish, hayvon va narsalar bilan muomila qilish me’yorini egallaydilar. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarida o‘sadi, shuningdek, bolalarda ma’naviy hissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o‘sadi. Bu yoshdagi bolalarda estetik xissiyotlarning namoyon bo‘lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko‘rish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yosh davrida bolalarning psixik rivojlanish jarayonlari o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu davrda

³ Виготский Л.С. “Вопросы возрастной (детской) психологии”// Собрание сочинений в 6 т. 1984.Т.4.С.376-385.

bolalarning psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishi bo‘lib turadi. Ular har narsaga qiziquvchan, hamma narsani bilgisi, hamma ishni qilib ko‘rgisi keladi. Bu yoshdagagi bolalar turli xil o‘yinlar o‘ynashni yaxshi ko‘radi, shu o‘yinlardagi qahramonlarga taqlid qiladi, unga o‘xshagini keladi, borliqni ideal obrazlarda tasavvur qiladi. Bu yoshdagagi bolalar ijodiy faoliyatidan rasm chizishga, musiqa eshitishga va boshqa narsalarga qiziqadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal suratlarda kichadi va bular bola shaxsi rivojlanishida asosiy psixologik tuzilmalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** Лисина М.И. “Проблема онтогенеза общения”. С. 89-100.
- 2.** Ахунджанова С.А. “Особенности форми функций речи дошкольника в различных ситуациях общения”. Автореф...к. пс .и. -М.: 1987. -17 с
- 3.** Z.T. Nishanova, N.G. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi”. T-2018.
- 4.** G‘oziyev E. “Yosh davrlari psixologiyasi”. Т. О‘qituvchi. 1994.
- 5.** G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”. Т. 2010.
- 6.** Sherbakov A.I. “Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum”. Toshkent. 1991.
- 7.** “Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya”: Pedagogik institut talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. - Т.: O‘qituvchi, 1974.
- 8.** Psixologiya. Qisqacha izohli lug‘at. Toshkent. 1998